KRILL VA LOTIN ALIFBOLARIGA ASOSLANGAN O'ZBEK IMLOSINING DOLZARB MUAMMOLARI

Mamirbekova Muqaddasoy Azizbek qizi
Andijon davlat chet tillari universiteti Xorijiy filologiya va turizm fakulteti IF Ingliz tili yo'nalish talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24184575

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida qo'llanilayotgan kirill va lotin yozuvlariga asoslangan imlo tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan bog'liq muammolar va ushbu muammolarning kelib chiqishidagi sabablari tahlil qilinadi. Bugungi kunda ikki xil yozuvdan foydalanish ta'lim, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va kundalik yozishmalarda ayrim qiyinchiliklarni paydo qilib kelmoqda. Ayniqsa, so'zlarning turlicha yozilishi, harflar va tutuq belgilarining qo'llanishidagi nomuvofiqliklar, imlo savodxonligi hamda elektron matnlar bilan ishlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Maqolada mavjud muammolarning yechimlari, yagona imlo me'yorlarini shakllantirish va o'zbek yozuvini takomillashtirish yuzasidan muallifning fikr-mulohazalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, kirill alifbosi, lotin alifbosi, imlo, yozuv madaniyati, imlo savodxonligi, davlat tili, imlo qoidalari, raqamlashtirish.

KIRISH

Har qanday millatning taraqqiyoti, madaniyati va ma'naviy merosi uning tili xisoblanadi. Til jamiyat hayotida nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixi, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Shu bois tilning rivojlanishi, uning yozuv tizimi va imlo qoidalarini yahshilash har doim eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan.

Mazkur masalalarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki ta'lim, axborot texnologiyalari va jamiyatning umumiy savodxonligi nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

O'zbek tili tarixida bir necha yozuv tizimlaridan foydalanilgan. Bugungi kunda esa mamlakatimizda asosan kirill va lotin yozuvlariga asoslangan o'zbek imlosi uchraydi. 1993-yil 2-sentabrda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun qabul qilingan. 1995-yilda esa alifboga ayrim o'zgartirishlar kiritildi va o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi.

Lotin yozuviga o'tishning asosiy maqsadlaridan biri o'zbek tilining xalqaro axborot va kommunikatsiya tizimidagi imkoniyatlarini kengaytirish xisoblanib, yozuvni zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish hamda ta'lim tizimida yagona yozuv me'yorlarini shakllantirish edi.

Biroq bu jarayon to'liq va bir xil sur'atda amalga oshmadi. Natijada bugungi kunda ayrim odamlar kirill yozuvidan, boshqalari esa lotin yozuvidan foydalanmoqda. Bu holat ikki yozuv o'rtasidagi farqlarni bilish, matnlarni o'qish va yozish hamda ularni bir yozuvdan ikkinchisiga o'girish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda.

ASOSIY QISM

1. O'zbek tilida ikki xil yozuvdan foydalanish muammosi

Bugungi kunda o'zbek tilida kirill va lotin yozuvlarining parallel ravishda qo'llanilishi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turli yoshdagi insonlarning yozuvga bo'lgan munosabatida

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

farqlar mavjud. Masalan, katta avlod vakillarining bir qismi kirill yozuvida o‘qish va yozishga ko‘proq odatlangan bo‘lsa, yosh avlod asosan lotin yozuvida ta’lim olmoqda.

Bunday vaziyatda avlodlar o‘rtasida yozma axborot almashish jarayoni biroz murakkablashadi. Masalan, kirill yozuvida chop etilgan kitoblarni lotin yozuvida ta’lim olayotgan yoshlar o‘qishda qiynalishi mumkin. Xuddi shuningdek, lotin yozuvida yozilgan matnlarni kirill yozuviga odatlangan ayrim insonlar tez o‘qiy olmasligi mumkin.

Bundan tashqari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ham ikki xil yozuvdan foydalanish holatlari ko‘p uchramoqda. Ayrim foydalanuvchilar bir xabarning o‘zida lotin va kirill harflarini aralashtirib yozadi. Bu esa matnning o‘qilishini qiyinlashtiradi va yozuv madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Menimcha, bu muammoni hal qilishda bir yozuvni biladigan insonlarni ikkinchisidan voz kechishga majburlash emas, balki aholining barcha qatlamlari uchun yagona yozuv me’yorlarini tushuntirish va o‘rgatish muhim.

2. Lotin yozuvidagi ayrim harflar va imlo belgilarining murakkabligi

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ayrim harflar va belgilarni qo‘llash bilan bog‘liq qiyinchiliklar mavjud. Xususan, O‘, G‘ harflari hamda tutuq belgisi yozuvda turli ko‘rinishlarda uchraydi.

Masalan, kompyuter va telefonlarda ushbu belgilarni yozishda turli apostroflardan foydalaniladi. Natijada bir xil so‘z turlicha ko‘rinishda yozilishi mumkin. Bu holat nafaqat oddiy yozishmalarda, balki rasmiy hujjatlar va elektron ma’lumotlar bazalarida ham muayyan noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, Sh va Ch harf birikmalarining yozilishi ham ayrim texnik va imloviy masalalarni yuzaga keltiradi. Ba’zan foydalanuvchilar ushbu birikmalarni to‘g‘ri yozmaydi yoki boshqa harflar bilan almashtirib yuboradi. Yoki bunday <<C>> va <<W>> shaklida yozishadi.

Bunday muammolarni kamaytirish uchun alifbo va imlo qoidalarini yanada takomillashtirish, elektron qurilmalarda o‘zbek tiliga mos klaviatura imkoniyatlarini kengaytirish hamda yagona yozuv standartlarini joriy etish zarur.

3. Imlo savodxonligi va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri

Hozirgi davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Odamlar kundalik muloqotda ko‘pincha qisqartirilgan so‘zlar, noto‘g‘ri yozilgan jumlalar va og‘zaki nutqqa xos ifodalardan foydalanadi.

Masalan, ayrim foydalanuvchilar so‘zlarni to‘liq yozish o‘rniga ularni qisqartiradi yoki o‘zlariga qulay bo‘lgan shaklda ifodalashni maqul ko‘rishadi. Bunday yozishmalar norasmiy muloqot uchun qulay bo‘lishi mumkin, ammo ularning doimiy qo‘llanilishi imlo savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli katta.

Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan noto‘g‘ri yozuv shakllarining keng tarqalishi e’tiborga loyiq. Chunki inson kundalik hayotida ko‘p duch keladigan yozuv shakllarini asta-sekin odatiy hol sifatida qabul qilishi mumkin.

Shu sababli imlo savodxonligini oshirish faqat maktab yoki oliy ta’lim muassasalarining vazifasi bo‘lib qolmasligi kerak. Ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ham yozuv madaniyatiga e’tibor qaratishlari kerak.

4. Kirill va lotin yozuvlari o‘rtasidagi tarjima va raqamlashtirish masalalari

Ikki yozuvdan foydalanish bilan bog‘liq yana bir muhim masala — matnlarni bir yozuvdan ikkinchisiga o‘girishdir. Bugungi kunda kutubxonalar, arxivlar va turli tashkilotlarda kirill yozuvida saqlanayotgan ko‘plab hujjatlar mavjud. Ularni lotin yozuviga o‘tkazish zamonaviy axborot tizimlari uchun muhim vazifalardan biridir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Biroq matnlarni avtomatik o‘girish jarayonida ayrim xatolar yuzaga kelishi mumkin. Chunki ba’zi so‘zlar, atoqli otlar, inson ismlari va joy nomlarini bir yozuvdan ikkinchisiga o‘girishda ularning asl shaklini saqlash talab etiladi. Masalan, insonning ism-familiyasi yoki tarixiy manbalardagi so‘zlarning noto‘g‘ri o‘girilishi ma’lumotlarning buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, elektron qidiruv tizimlarida ham muammolar uchraydi. Masalan, biror kitob yoki maqola nomini lotin yozuvida qidirayotgan foydalanuvchi uning kirill yozuvidagi shaklini topa olmay qolishi mumkin.

Shuning uchun elektron kutubxonalar va axborot bazalarida matnlarning ikkala yozuvdagi shaklini saqlash, ularni o‘zaro bog‘lash va sifatli transliteratsiya dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Yozuv tizimini takomillashtirish va yangi o‘zgarishlar

O‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. 2021-yil 10-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 61-son qarorida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Shuningdek, 2026-yil 21-oktabrda O‘RQ-1184-sonli qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini 28 ta harf va bitta tutuq belgisidan iborat shaklda takomillashtirish nazarda tutilgan. Mazkur qonun 2027-yil 22-apreldan kuchga kirishi belgilangan.

Bu o‘zgarishlar o‘zbek alifbosini yanada takomillashtirish, imlo qoidalarini tartibga solish va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Biroq alifbodagi o‘zgarishlarning samarali amalga oshishi uchun faqat qonun qabul qilishning o‘zi yetarli xisoblanmaydi. Yangi imlo qoidalarini aholiga tushuntirish, darsliklar va lug‘atlarni yangilash, o‘qituvchilarni zarur materiallar bilan ta’minlash hamda elektron tizimlarni moslashtirish talab etiladi.

Menimcha, alifboni takomillashtirish jarayonida eng asosiy e’tibor uning oddiy insonlar uchun qanchalik qulay ekaniga qaratilishi kerak. Chunki yozuv tizimi faqat tilshunoslar yoki mutaxassislar uchun emas, balki butun jamiyat uchun xizmat qiladi.

6. Mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Yuqorida ko‘rib chiqilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, o‘zbek tilining yagona va mukammal imlo qoidalarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda bir xil qo‘llashni ta’minlash zarur.

Ikkinchidan, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlarni ko‘paytirish lozim.

Uchinchidan, lotin va kirill yozuvlari o‘rtasida sifatli o‘girish imkoniyatiga ega bo‘lgan elektron dasturlarni takomillashtirish kerak.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ri yozuv madaniyatini targ‘ib qilish, ommaviy axborot vositalarida imlo qoidalariga qat’iy rioya etish lozim.

Beshinchidan, yangi alifbo va imlo qoidalariga oid o‘zgarishlarni aholiga sodda va tushunarli shaklda yetkazish muhimdir.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi o‘zbek tilidagi yozma muloqot sifatini oshirish, turli avlod vakillari o‘rtasidagi yozuv bilan bog‘liq qiyinchiliklarni kamaytirish va yagona imlo madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kirill va lotin alifbolariga asoslangan o‘zbek imlosi bilan bog‘liq muammolar bugungi kunda tilshunoslik, ta’lim va jamiyat hayotidagi dolzarb masalalardan biri. Ikki xil yozuvning parallel ravishda qo‘llanilishi, imlo qoidalaridagi ayrim murakkabliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi savodxonlik darajasi va elektron matnlarni qayta ishlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratishni talab qiladi.

Menimcha, o‘zbek tilining rivojlanishi uchun eng muhim shartlardan biri — yozuvda izchillik va yagona me’yorni ta’minlashdir. Alifbo qanchalik takomillashmasin, agar undan foydalanish qoidalari aholiga yetarlicha tushuntirilmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.

Shuningdek, kirill yozuvida yaratilgan boy ilmiy, tarixiy va badiiy merosni ham unutmasligimiz lozim. Uni saqlash, raqamlashtirish va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Lotin yozuvini rivojlantirish bilan bir qatorda, avvalgi yozuvlarda yaratilgan asarlardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirish lozim.

Eng muhimi, yozuv masalasi faqat alifbodagi harflarni o‘zgartirish bilan cheklanmasligi juda muhim. Uning asosiy maqsadi xalqning savodxonligini oshirish, o‘zbek tilining nufuzini mustahkamlash va zamonaviy axborot makonida uning imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
2. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
3. To‘g‘ayev T., Tavaldiyeva G., Akramova M. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
5. Begmatov E., Madvaliyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.